

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ZAMON KATEGORIYASI**Mo'minova Muslimaxon Ma'sudjon qizi***Farg'ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti**Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi talabasi**muminovamuslimakhon1@gmail.com***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 20.10.2025**Revised: 21.10.2025**Accepted: 22.10.2025***KALIT SO'ZLAR:***zamon, fe'l, o'tgan
zamon, hozirgi zamon,
kelasi zamon, time
tense, Simple,
Continuous, Perfect,
Perfect continuous.*

Maqolada o'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasi tahlil qilinadi, ularning grammatik tuzilishidagi o'xshashliklar va farqlar ko'rsatiladi. O'zbek tilida zamonlar fe'lga qo'shiladigan grammatik qo'shimchalar orqali ifodalanadi, ingliz tilida esa yordamchi fe'llar va fe'l shakllari orqali harakatning vaqtini va davomiyligini belgilash mumkin. O'zbek tilida zamonlarning uch asosiy turi (o'tgan, hozirgi va kelajak zamon) mavjud bo'lsa, ingliz tilida bu tizim murakkabroq bo'lib, 12 ta asosiy zamonni o'z ichiga oladi. Maqolada, shuningdek, zamonlarning semantik va formal tahlili, ularning tillararo solishtirilishi va til o'rganuvchilarga zamonlarni o'rganishda qo'llanma sifatida xizmat qilishi yoritilgan.

Turli tizimli tillarda fe'llarning zamon kategoriyasi muhim grammatik kategoriya hisoblanadi. Fe'l yordamida ifodalanadigan har qanday harakat yoki holat biror bir zamon va makonda sodir bo'ladi va fe'l zamonlari harakat yoki holatni sodir bo'lish vaqtini aniqlashda asosiy vosita hisoblanadi. Zamonlar gaplarning ma'nosi va kontekstini tushunishda ham katta ahamiyat kasb etadi.⁵⁹

⁵⁹ Ismonaliyev Qo'ldashaliyevich J. (2025). O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining tipologik xususiyatlari. Qo'qon dpi. Ilmiy Xabarlar Jurnali, 5(2).

O'zbek tilida zamon fe'lga qo'shiladigan grammatik qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Bu qo'shimchalar orqali harakatning hozirgi, o'tgan yoki kelajakda bo'lishi aniq ko'rsatiladi. Ingliz tilida esa zamonlar tizimi murakkab bo'lib, nafaqat vaqt, balki harakatning davomiyligi, tugallanganlik darajasi va holatning davom etishi kabi jihatlar ham inobatga olinadi. Ingliz tilidagi zamonlar, asosan, yordamchi fe'llar va fe'lning turli shakllari orqali ifodalanadi.

Zamon (time tense) – bu harakat yoki holatning vaqt bilan aloqasini ko'rsatadigan grammatik kategoriyadir. U semantik va formal jihatdan tahlil qilinadi. Tilshunoslikda zamon uch vaqt oralig'ida – o'tmish, hozirgi va kelajak doirasida baholanadi.

O'zbek tilida uch asosiy zamon mavjud: o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon.

O'tgan zamon fe'llari, nutq so'zlanayotgan vaqtdan oldin bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni ifodalaydi. Ular quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Yaqin o'tgan zamon fe'li;
2. Uzoq o'tgan zamon fe'li;
3. O'tgan zamon hikoya fe'li;
4. O'tgan zamon davom fe'li;
5. O'tgan zamon maqsad fe'li.

Yaqin o'tgan zamon fe'li nutq so'zlanayotgan vaqtdan biroz oldin amalga oshirilgan yoki amalga oshirilmagan, lekin bu jarayon so'zlovchi tomonidan bevosita kuzatilgan yoki ishtirok etilgan ish-harakatni bildiradi. Masalan:

Go'zal vodiydagi gullar bog'i ko'klam libosiga bezandi.

Yaqin o'tgan zamon fe'li, fe'l negiziga -di qo'shimchasining qo'shilishi orqali hosil bo'ladi.

Uzoq o'tgan zamon fe'li esa nutq so'zlanayotgan vaqtdan ancha oldin amalga oshirilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni, ammo hozirgi paytda xabar berilayotgan holatni bildiradi. Masalan:

Mirhaydarni kimdir majlisga olib ketgan ekan.

Uzoq o'tgan zamon fe'li, fe'l negiziga -gan sifatdash qo'shimchasining qo'shilishi orqali tuziladi. Ushbu fe'l holati eslash, eslatish yoki eshitish kabi modal ma'nolarni ham ifodalaydi.

O'tgan zamon hikoya fe'li qisqa vaqt ichida nutq so'zlanayotgan paytdan ilgari amalga oshirilgan yoki amalga oshirilmagan ish-harakatni hikoya qilish orqali ifodalanadi. Masalan:

Halol rizq izlab, mehnat qilib, charchab uxlagan kishi shu kechani ma'rifat bilan o'tkazibdi.

O'tgan zamon hikoya fe'li, -b yoki -ib qo'shimchalarini qo'shish orqali shakllanadi.

O'tgan zamon davom fe'li nutq so'zlanayotgan vaqtdan ilgari biror muddat davom etgan yoki takrorlanib turgan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan:

Bu yerda Boburning kitoblari har doim o'z kuchi bilan saqlanar edi.

O'tgan zamon maqsad fe'li nutq so'zlanayotgan vaqtdan ilgari amalga oshirilishi rejalashtirilgan, ammo amalga oshmagan ish-harakatni ifodalaydi. Misol:

*U bugun Malika bilan samimiy suhbat qurib, barcha sirlarini to'kib solmoqchi edi.*⁶⁰

Hozirgi zamon fe'li, nutq so'zlanayotgan paytda amalga oshirilayotgan yoki amalga oshirilmayotgan ish-harakatni bildiradi. Hozirgi zamon fe'li -yap, -yotir, -moqda yoki -yotib affikslarining qo'shilishi bilan shakllanadi.

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I	Boryapman	Boryapmiz
II	Boryapsan	Boryapsiz
III	Boryapdi	Boryapdilar

Kelasi zamon -a, -y shaklidagi ravishdoshlar, -moqchi, -gajak, -gay kabi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi. Bu zamon ikki xil ma'no shakliga ega:

- 1) hozirgi-kelasi zamon (masalan, *qush uchadi, maktabda o'qiydi*);
- 2) sof kelasi zamon (masalan, *ertaga boraman, turmoqchiman*).⁶¹

Ingliz tilidagi zamonlar tizimi o'zbek tiliga nisbatan murakkabroq bo'lishi mumkin, chunki u qat'iy tartibga, mantiqqa va grammatik qoidalarga amal qiladi. Ingliz tilida 12 ta zamon mavjud bo'lib, ular 4 turga bo'linadi:

- 1) Simple (oddiy zamonlar);
- 2) Continuous (davomli zamonlar);

⁶⁰ Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: Iqtisod- moliya, 2007.

⁶¹ Mengliyev B., Xoliyorov O., Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma. – 5-nashr. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 188-b.

3) Perfect (tugallangan zamonlar);

4) Perfect continuous (tugallangan davomli zamonlar).

Ingliz tilidagi zamonlar o'tgan, hozirgi yoki kelajakdagi ish-harakatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

Ba'zi adabiyotlarda *Future in the past* (o'tgandagi hozirgi zamon) tushunchasi ham ingliz tilidagi zamonlar tizimiga qo'shiladi. Biroq umumiy tarzda 12 ta asosiy zamon mavjud.

Umuman olganda, ingliz tilidagi zamonlar tizimi o'zbek tiliga qaraganda murakkabroq bo'lishi mumkin, lekin bu tizimni to'liq o'zlashtirish grammatikani yaxshi tushunishga yordam beradi.

1. *Present Simple* – Hozirgi oddiy zamon.

Misol: I play football. – Men futbol o'ynayman.

Qo'llanishi: odatiy harakatlar, faktlar.

2. *Present Continuous* – Hozirgi davomli zamon.

Misol: I am playing football. – Men futbol o'ynamoqdaman.

Qo'llanishi: ayni damda sodir bo'layotgan ishlar.

3. *Present Perfect* – Hozirgi tugallangan zamon.

Misol: I have played football. – Men futbol o'ynaganman.

Qo'llanishi: hozirga qadar bajarilgan ishlar.

4. *Present Perfect Continuous* – Hozirgi davom etayotgan tugallangan zamon.

Misol: I have been playing football. – Men anchadan beri futbol o'ynamoqdaman.

Qo'llanishi: o'tgan zamonda boshlangan va hozirgacha davom etayotgan harakatlar.

5. *Past Simple* – O'tgan oddiy zamon.

Misol: I played football. – Men futbol o'ynadim.

Qo'llanishi: aniq bir vaqtda bo'lib o'tgan harakatlar.

6. *Past Continuous* – O'tgan davomli zamon.

Misol: I was playing football. – Men futbol o'ynayotgan edim.

Qo'llanishi: o'tgan zamonda ma'lum bir vaqtda davom etayotgan harakatlar.

7. *Past Perfect* – O'tgan tugallangan zamon.

Misol: I had played football. – Men (undan avval) futbol o'ynagandim.

Qo'llanishi: o'tgan zamonda boshqa bir harakatdan ilgari bo'lib o'tgan ishlar.

8. *Past Perfect Continuous* – O'tgan davom etgan tugallangan zamon.

Misol: I had been playing football. – Men futbol o'ynab kelayotgan edim.

Qo'llanishi: o'tgan zamonda bir vaqtgacha davom etgan harakatlar.

9. *Future Simple* – Kelajak oddiy zamon.

Misol: I will play football. – Men futbol o'ynayman (kelajakda).

Qo'llanishi: kelajakdagi harakatlar.

10. *Future Continuous* – Kelajak davomli zamon.

Misol: I will be playing football. – Men futbol o'ynayotgan bo'laman.

Qo'llanishi: kelajakda ma'lum vaqtda davom etayotgan harakatlar.

11. *Future Perfect* – Kelajak tugallangan zamon.

Misol: I will have played football. – Men futbol o'ynab bo'lgan bo'laman.

Qo'llanishi: kelajakda biror vaqtdan oldin tugaydigan harakatlar.

12. *Future Perfect Continuous* – Kelajak davom etgan tugallangan zamon.

Misol: I will have been playing football. – Men futbol o'ynab kelayotgan bo'laman.

Qo'llanishi: kelajakda bir vaqtgacha davom etadigan harakatlar.

Xullas, zamon kategoriyasi har ikkala – o'zbek va ingliz tillarining grammatik tizimida muhim o'rin tutadi. Harakat yoki holatning vaqt bilan bog'liqligini ko'rsatish orqali zamon nafaqat grammatik vosita, balki mantiqiy va semantik aniqlikni ham ta'minlaydi. O'zbek tilida zamonlar uch asosiy shaklda – o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlarda ifodalanadi hamda ularning ichki ko'rinishlari (yaqin, uzoq o'tgan zamon, hikoya fe'li, davom fe'li, maqsad fe'li kabi) orqali harakatning tafsilotlari aniq va mazmunli yetkaziladi.

Ingliz tilida esa zamonlar tizimi yanada murakkab bo'lib, 12 ta asosiy zamon, ba'zan esa 16 tacha zamon, shakllari keltiriladi. Ushbu zamonlar harakatning nafaqat vaqtini, balki uning davomiyligi, tugallanganlik darajasi va boshqa nozik jihatlarini ifodalash imkonini beradi. Simple, Continuous, Perfect va Perfect Continuous guruhlariga ajratilgan zamonlar o'ziga xos grammatik qurilmalarga ega bo'lib, har birining o'ziga xos qo'llanish holatlari mavjud.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, zamonlar tizimi tilning dinamik va ko'p qirraliligini aks ettiruvchi asosiy grammatik bo'limlardan biridir. O'zbek va ingliz tillaridagi zamon kategoriyasining o'zaro solishtirilishi, ularning umumiy va farqli jihatlarini o'rganish til o'rganuvchilarning grammatik savodxonligini oshirishda, tarjima jarayonida aniqlikni ta'minlashda va tillararo interferensiyani kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot, ayniqsa ingliz tilini o'rganayotgan o'zbek talabalari uchun amaliy va nazariy qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismonaliyev Qo‘ldashaliyevich J. (2025). O‘zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining tipologik xususiyatlari. Qo‘qon DPI. Ilmiy Xabarlar Jurnali, 5(2).
2. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., g‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: Iqtisod- moliya, 2007.
3. Mengliyev B., Xoliyrov O‘., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. – 5-nashr. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
4. <https://bilimlar.uz/ingliz-tilida-zamonlar-tavsifi/>

